

## MIGRATSIYA VA MEHNAT BOZORI MUVOZANATI: YEVROPA VA MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

**Rustamova Dilshoda Baxtiyor qizi**

*Iqtisodiyot fanlari magistri, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent,  
O‘zbekiston*

*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlari*

*Email: [dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com](mailto:dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0000-3240-7663*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi migratsiya jarayonlarining Yevropa va Markaziy Osiyo mehnat bozorlariga ta'siri tahlil qilinadi. Migratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari ko'rib chiqilib, har ikki mintaqada tajribasi asosida mehnat bozorini muvozanatlashtirish yo'llari taklif etiladi. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Migratsiya, mehnat bozori, Yevropa, Markaziy Osiyo, pul o'tkazmalari, ijtimoiy integratsiya.

## MIGRATION AND LABOR MARKET BALANCE: THE EXPERIENCE OF EUROPE AND CENTRAL ASIA

**Rustamova Dilshoda Baxtiyor qizi**

*Master of Economics, Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan*

*08.00.00 – Economic sciences*

*Email: [dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com](mailto:dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0000-3240-7663*

**Abstract:** This thesis analyzes the impact of migration processes on the labor market balance in Europe and Central Asia. It explores both the positive and negative consequences of migration and, based on the experiences of both regions, proposes recommendations for achieving labor market balance. The study relies on reports and statistical data from international organizations.

**Key words:** Migration, labor market, Europe, Central Asia, remittances, social integration.

Migratsiya jarayonlari bugungi global iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha qariyb 170 milliondan ortiq odam mehnat migranti sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkich global ishchi kuchining taxminan 5 foizini tashkil etadi[1].

**(6th international scientific and practical conference)**

Mehnat migratsiyasi bir tomondan, ishchi kuchi tanqisligini qoplash, yangi malakali kadrlarni jalb etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mahalliy mehnat bozorida raqobat kuchayishi, ijtimoiy integratsiya muammolari va “miya oqimi” kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Mehnat bozori muvozanati mavjud ishchi kuchi taklifi va ishchi kuchiga bo‘lgan talabning mos kelishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, migratsiya va mehnat bozorining uzviy bog‘liqligi global va mintaqaviy iqtisodiy siyosatda muhim o‘rin tutadi. Bu masalani ilmiy jihatdan o‘rganish nafaqat iqtisodiy nazariyot, balki amaliy siyosiy qarorlar uchun ham zarurdir. Har bir mintaqa uchun uning mazmuni va ahamiyati turlicha bo‘lib, iqtisodiy va demografik sharoitlarga bog‘liq ravishda shakllanadi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun migratsiya asosan tashqi daromad manbai va pul o‘tkazmalari ko‘rinishida ahamiyat kasb etsa, Yevropa davlatlarida u demografik qarish va ishchi kuchi tanqisligini qoplash vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, avvalo, Yevropa tajribasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ko‘p yillardan beri migratsiyani iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, mehnat bozoridagi bo‘shliqlarni to‘ldirish va yangi malakali ishchi kuchini jalb etish vositasi sifatida ko‘rib kelmoqda. Biroq, bu jarayon bilan birga ijtimoiy integratsiya, millatlararo uyg‘unlik va madaniy moslashuv kabi murakkab muammolar ham yuzaga chiqmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida demografik qarish jarayoni va tug‘ilish darajasining pasayishi natijasida ishchi kuchi tanqisligi kuzatilmoqda. Migrantlar ayniqsa qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va tibbiyot sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Eurostat (2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida so‘nggi o‘n yillikda migratsiya oqimlari ishchi kuchining yillik o‘sishini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida qayd etilgan[2]. Biroq, migratsiya integratsiya siyosatini murakkablashtiradi va ijtimoiy muvozanatni taqozo etadi.

Yevropada migratsiya asosan ishchi kuchi yetishmovchiligini qoplash vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida u iqtisodiy barqarorlik manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon Banki (2023) ma‘lumotlariga ko‘ra, Tojikiston YAIMining 31 foizi, Qirg‘iziston YAIMining esa 25 foizi mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari hisobiga shakllangan. O‘zbekiston ham tashqi mehnat migratsiyasidan sezilarli darajada ta‘sirlanadi: Markaziy bank ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda respublika aholisi tomonidan qabul qilingan pul o‘tkazmalari 16,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan [3;4].

Bu farq shuni ko‘rsatadiki, Yevropa migratsiyani mehnat bozorining talabini qondirish uchun zarur mexanizm sifatida qabul qilsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari migratsiyadan ko‘proq iqtisodiy resurs sifatida foydalanmoqda. Natijada, Yevropa uchun asosiy muammo migrantlarni jamiyatga integratsiya qilish bo‘lsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy vazifa – chet elda ishlayotgan mehnat

(6th international scientific and practical conference)

migrantlarining pul o'tkazmalarini samarali iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirish va "miya oqimi"ni kamaytirishdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa va Markaziy Osiyo migratsiya jarayonlariga turlicha yondashmoqda. Yevropa tajribasi migratsiyani demografik qarish, ishchi kuchi tanqisligi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Bu hudud uchun asosiy vazifa – migrantlarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, mehnat huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdir. Markaziy Osiyo tajribasi esa mutlaqo boshqa yo'nalishda rivojlanmoqda. Bu mintaqa davlatlari uchun migratsiya ko'proq tashqi iqtisodiy resurs manbai bo'lib, aholining bandligini yumshatadi va mamlakatga valyuta tushumini ta'minlaydi.

Shunday qilib, asosiy farq – Yevropa migratsiyani "talab" nuqtayi nazaridan, Markaziy Osiyo esa "taklif" nuqtayi nazaridan boshdan kechirmoqda. Ya'ni, Yevropa mamlakatlari ishchi kuchiga ehtiyoj sezib, migratsiyani faol qabul qilsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy sabablar bilan ishchi kuchini tashqi bozorga chiqarishga majbur bo'lmoqda.

Biroq, har ikkala hududni umumiy jihatlar ham birlashtiradi:

- Migratsiya ularning iqtisodiy barqarorligi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.
- Ijtimoiy integratsiya muammolari har ikkala mintaqada dolzarbligini saqlab qolmoqda.
- Migratsiya oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirish va uni rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarur.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, migratsiya siyosatini samarali olib borish nafaqat bandlik darajasiga, balki iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikka ham ta'sir qiladi. Shu bois, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tajriba almashishi orqali migratsiya jarayonlarini boshqarishda yanada samarali natijalarga erishishi mumkin.

Migratsiya jarayonlari to'g'ri boshqarilganda iqtisodiy o'sish, mehnat bozorining samaradorligi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi mumkin. Migratsiya siyosatini shakllantirishda ikki mintaqa davlatlari o'zaro tajriba almashishi, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, pul o'tkazmalaridan iqtisodiy o'sishda samarali foydalanish va integratsion jarayonlarni kuchaytirish bo'yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirishi muhimdir. Yevropa va Markaziy Osiyo tajribasidan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Migrantlarning malakasini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash.
- Pul o'tkazmalarini investitsion loyihalarga yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish.
- Migratsiya siyosatini ijtimoiy integratsiya va inson kapitalini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish.

(6th international scientific and practical conference)

- Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasida mehnat migratsiyasi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eurostat. (2022). *Migration and migrant population statistics*. European Commission. Retrieved from <https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained>
2. International Labour Organization. (2021). *ILO global estimates on international migrant workers: Results and methodology (3rd ed.)* <https://www.ilo.org>
3. World Bank. (2023). *Migration and remittances data*. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/migration/overview>
4. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report on remittances*. Tashkent: CBU. <https://cbu.uz>
5. International Organization for Migration. (2021). *World migration report 2022*. <https://worldmigrationreport.iom.int>

